



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
2. Ойбек Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
3. Sarvar Axmedov XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
4. Nafosat Botirova ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
5. Дмитрий Епифанов АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
6. Istora Jo‘rayeva O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
7. Xamdani Matyakubov TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
9. Sevara Pulatova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
10. Yoqubjon Tayronov TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
11. Dildora Tursunova HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
12. Солижон Қудратов СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63



Yoqubjon Tayronov,
Tarix fanlari nomzodi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
yakubjon.tayronov @bk.ru

**TURKISTONDA MAHALLIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI
XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR**
(Milliy matbuot materiallari asosida)

For citation: Yoqubjon R.Tayronov. SOME THOUGHTS ON THE CHARITABLE ACTIVITIES OF LOCAL RICH PEOPLE IN TURKESTAN (BASED ON MATERIALS FROM THE NATIONAL PRESS). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.53-58

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978668>

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada XX asrning boshlarida Turkistonning turli shahar va qishloqlarida mahalliy savdogar-boylarning metsenatlik faoliyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Mustamlka sharoitida ular xalq manfaatlariga xizmat qiladigan xayrli ishlarni amalga oshirib, keng jamoatchilikning olqishlariga sazovor bo'lgan. Ba'zilar ta'lim maskanlariga, ba'zilar mahalliy madaniyat sohalarining taraqqiyotiga, ba'zilar aholi dunyoqarashini shakllanishiga munosib hissa qo'shadigan muassasalarning barpo etilishiga homiylik qilib turgan.

Kalit so'zlar: metsenatlik, hadiya, homiylik, savdogar, tadbirkor, sarmoyador, boy, ta'lim, madaniyat, maktab, Turkiston, masjidlar, madrasalar, o'qituvchi, uyezd, mahalla.

Якубжон Тайронов,
Кандидат исторических наук
Ташкентский государственный
педагогический университет имени Низами
yakubjon.tayronov @bk.ru

**НЕКОТОРЫЕ МЫСЛИ О БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
МЕСТНЫХ БОГАТЫХ ЛЮДЕЙ В ТУРКЕСТАНЕ
(ПО МАТЕРИАЛАМ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕССЫ)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены интересные сведения о меценатской деятельности местных богатых купцов в различных городах и селах Туркестана в начале XX века. В колониальных условиях они совершали добрые дела, служившие интересам народа и получившие аплодисменты широкой публики. Некоторые из них спонсировали создание

учебных заведений, некоторые способствовали развитию местной культурной сферы, а некоторые способствовали формированию мировоззрения населения.

Ключевые слова: благотворительность, дар, меценатство, купец, бизнесмен, инвестор, богатый, образование, культура, школа, Туркестан, мечети, медресе, учитель, уезд, микрорайон.

Yakubjan R. Tayronov,
Candidate of Historical Sciences
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
yakubjon.tayronov @bk.ru

SOME THOUGHTS ON THE CHARITABLE ACTIVITIES OF LOCAL RICH PEOPLE IN TURKESTAN (BASED ON MATERIALS FROM THE NATIONAL PRESS)

ABSTRACT

This article provides interesting information about the patronage activities of local wealthy merchants in various cities and villages of Turkestan at the beginning of the 20th century. In colonial conditions, they did good deeds that served the interests of the people and received applause from the general public. Some of them sponsored the establishment of educational institutions, some contributed to the development of the local cultural sphere, and some contributed to the formation of the worldview of the population.

Index Terms: charity, gift, patronage, merchant, businessman, investor, rich, education, culture, school, Turkestan, mosques, madrasah, teacher, district, microdistrict

1. Mavzuning dolzarbligi:

Mintaqa xalqlarida qadimdan bir-birlariga ko'mak berish, qiynalgan oilalalarga yoki kishilarga moddiy jihatdan ko'mak berish shakllanib kelgan. Ayniqsa, bu borada mablag'i yetarlicha bo'lgan, ishbilarmon tadbirkorlar alohida tashabbus ko'rsatib, o'z mahallalari, qishloqlari, guzari yoki ko'chalarini ta'mirlatib, yangi yo'llar va ko'priklar, maktablar, madrasalar qurdirib bergan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ham ana shunday an'analar davom ettirilib mahalliy boylar o'zlarining metsenatligi bilan mashhur bo'ldi. Said Boboxon To'ra o'g'li, Ahmadjon Nosirboy o'g'li, Homidboy Oxundboy o'g'li, Muhammad Abulqosim o'g'li, Muhammad Aminboy o'g'li kabi qator savdogarlar ta'lim va tarbiya o'choqlarini barpo qilib, jadidlarning yaqin yordamchilariga aylanishdi. Ularning metsenatlik faoliyatlarini mahalliy matbuot manbalari orqali ochib berish va uni keng targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

2. Metodlar:

Mazkur maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida XX asr boshlaridagi mahalliy tadbirkorlarning insonparvarlik faoliyatlari milliy matbuot materiallari asosida ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

“Metsenatlik” tushunchasi bizga keyingi yillarda kirib kelgan bo'lsa ham, lekin uning mazmun-mohiyati xalqimizga qadim-qadimdan yaxshi ma'lum bo'lib, yurtimiz azaldan ilm-ma'rifat, madaniyat, ma'naviyat homiyolari bilan ham mashhur bo'lgan. Demak, metsenatlik (metsenatlik faoliyati) deyilganda, madaniyat va san'atni, shuningdek, mazkur sohadagi ilm-fanni, ta'limni, ma'rifatni rivojlantirishga homiylik qilish tushuniladi.

XX asr boshlarida Turkistonda ham mahalliy boylar keng metsenatlik faoliyati bilan shug'ullanib, ma'rifatparvarlarning moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan. Ularning ba'zilar ta'limning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib, yangi jadid maktablari barpo etar, yangi imoratlar barpo etib berar, ba'zilar esa kutubxonalar ochib, o'lkaga endigina kirib kelgan teatr kechalarini tashkil etishda alohida tashabbus ko'rsatgan. Misol uchun Samarqand viloyati Xo'jand uyezdiga qarashli Xaptuz qishlog'ida istiqomat qiladigan metseanat boylardan biri

Said Boboxon To'ra o'g'li o'zining qishlog'ida ikki yuzga yaqin bola sig'adigan bir yangi usuldagi maktabga asos solgan va unga o'qituvchi qidirib ommaviy axborot vositalariga e'lon bergan[1]. Tez orada ta'lim muassasasining faoliyati yo'lga qo'yilib, boy atrofdagilarni oliqishiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, Samarqand viloyatining Jizzax shahrida savdogar-boylardan Ahmadjon Nosirboy o'g'li o'z hisobidan zamonaviy tipdagi yangi usul maktabiga asos slogan[2]. Boyning qilgan mazkur metsenatligi ma'rifatparvarlarning va oddiy xalqning oliqishiga sazovor bo'lgan. Bu kabi boylarning metsenatlik faoliyatlarini Turkistonning turli mintaqalarida uchratish mumkin edi. Masalan, Farg'ona viloyatining Xo'qand uyezdida tadbirkorlardan bo'lgan Muhammad Abulqosim o'g'li shaharning Qipchoq ariq mahallasidagi masjid yoniga ikki xonadan iborat yangi usul maktabiga bino qurib berib homiylik qilgan[3]. Ushbu maktab 150 nafar bolaga mo'ljallangan bo'lib, mazkur maktabga o'qituvchilikka Abdulvahob unga yordamchilikka esa Hakimjon Mirzoali o'g'illari tayinlangan. Ularning tashabbuslari bilan qisqa vaqt ichida ushbu maktab o'quvchilarning soni 60 nafardan 90 taga yetgan. Huddi shuningdek, Xo'qand shahridagi savdogar boylardan biri Homidboy Oxundboy o'g'li shaharning Xonoqoh mahallasidagi yangi usuldagi "Mahmudiya" nomli maktabga o'quvchilarining soni ortib borishi munosabati bilan o'z joylariga sig'may qolganligi uchun uch xonali yangi imoratini hadya qilgan[4]. Bu metsenatlik ishi bilan sarmoyador keng jamoatchilikning xususan, o'qituvchilar va o'quvchilarning alohida oliqishiga sazovor bo'lgan. Yana mazkur shahardagi sarmoyadorlardan bo'lgan Orifjonboy o'z mablag'lari hisobiga "Maktabi Rashidiya islomiyasi" nomli yangi usul maktabi ochgan va keng jamoatchilikning hurmatini qozongan[5]. Samarqand shahrining Toshhovuz ko'chasida istiqomat qiladigan tadbirkor Muhammad Aminboy ham o'z mahallasida "Maktabi isloh" nomli jadid maktabiga homiylik qilgan va qisqa muddatlar ichida mazkur ta'lim masakni o'z faoliyatini boshlagan[6]. Namangan shahrida esa ishbilarmon Mirzahamdin Og'alikov o'zi yashab turgan mahallasining masjidi va uning yonidagi maktabga homiylik qilib, uni qaytadan ta'mirlatib bergan[7]. Shu shaharda yashovchi tadbirkor boylardan Imomali Keldieshonov esa mahallasi bollari uchun bir yangi usuldagi maktab qurdirib, unga Qurbonniyoz Yoqub o'g'lini o'qituvchilikka taklif etgan[8]. Andijon shahrida esa mahalliy boylardan Zununboy Qutlug'boev 1907 yilda homiylik asosida mahalla yoshlariga zamonaviy maktab qurib bergan hamda unga marg'ilonlik bir o'qituvchini dars berish uchun taklif qilgan. Lekin, uning ta'lim berish usuli o'quvchilar va ota-onalarni qoniqtirmagach, Toshkent shahridan tajribali o'qituvchilar taklif qilingan va maktab faoliyati yo'lga qo'yilgan[9]. 1914 yil andijonlik millatparvarlardan Mavlaviy domlaning tashabbusi bilan sarmoyador Mullo Zayniddin ham shu xildagi maktabga xayriya qilgan. Bu yerga dars berish uchun Toshkentdan tajribali o'qituvchi Qori Xasan Ziyoboevni taklif qilgan va uning faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Andijonda Dadaboy Xojining maslahati va say'-harakati bilan Chinornigi mahallasida savdogar boylardan biri Badalboy Xoji ham ana shunday bir ta'lim maskaniga homiylik qilgan. Bu yerga ham toshkentlik o'qituvchi Qori Xasan Ziyoboevni bosh muallimlikka chaqirishgan. Bundan ko'rinadiki, XX asr boshlarida Andijon shahridagi yangi usuldagi maktablarning faoliyatini yo'lga qo'yishda Toshkent shahridan o'qituvchilar taklif etish alohida ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, Samarqand uyezdining Pahlavon ariq volostida savdogar Ahmadxo'ja Sodiq o'g'lining bevosita tashabbusi va homiyligi bilan Aziza mavzeida yangi maktab qad rostlagan va bu Samarqand atrofidagi qishloqlar orasida yangi usuldagi birinchi maktab bo'lib, dastlab 24 ta bola tahsil olgan[10].

Aksar hollarda mahalliy mulk egalari moddiy va ma'naviy jihatdan Turkistondagi jadid taraqqiyparvarlariga yaqindan yordam berib turishgan. Masalan, Toshkentda mahalliy xalq farzandlari uchun birinchi yangi usuli maktabi tashkil etilib, dastlab, u 100 kishiga mo'ljallangan va shuncha parta hozirlanib, shuncha miqdorda o'quvchi qabul qilgan[11]. Lekin vaqtlar o'tishi bilan o'quvchilarning soni ko'payib yana 60 ta bola tahsil olish uchun kelgan. Ammo bunda vaziyatda partalar yetishmasligi tufayli muammo paydo bo'lgan va o'quvchilar yerda o'tirib bilim olishga majbur bo'lgan. Bu holatni ko'rgan mahalliy savdogarlardan biri Abduhakim Sarimsoqov 20 ta parta keltirib unga homiylik qilgan va mazkur muammoning bartaraf etilishida munosib hissa qo'shgan. Bundan tashqari ushbu maktabga diniy ulamo Abdusomi qori 100 so'm, "Musulmon jamiyati" tashkiloti 300 so'm, maktab binosini barpo etib bergan ishbilarmon boy Dadajon

Mirvoqoev esa, ushbu 1914 yilda yana bir xona qurib berishga va'da bergan. Munavvarqori ularning qo'llab-quvvatlashlari tufayli mazkur ta'lim maskani kundun-kunga rivojlanib borayotganligini ta'kidlagan. Maktab olti sinfli bo'lib, bolalar 4 ta xonada 6 ta muallim tomonidan o'qitilayotgani va imkoni boricha maktabni yana ham kengaytirish zarurligini aytib o'tgan. Va so'zining oxirida o'zlarining yordamlarini ayamagan mahalliy boylar Dadajon Mirvoqoev hamda Abduhakim Sarimsoqovlarga va boshqa barcha homiylik qilganlarga o'zining samimiy minnatdorchiligini izhor etgan.

Huddi shunga o'xshash "Dorul adab" nomli yangi usul maktabi 1914 yil Samarqand shahrida ham ochilgan bo'lib, savdogarlar Fozilboy va Xoji Yoqubboyilar shaharidagi zargarlik rastasidagi imoratlarining uchta xonasini ushbu maktabga ajratib bergan[12]. Bu haqida manbalarda shunday deyilgan: *"...muxtaram Fozilboy va Xoji Yoqub janoblari Samarqand zargarlik rastasidagi imoratlarini yuqori tabaqasini "Dorul adab" maktabi uchun berganliklari sababli maktab muallimlari tomonidan tashakkurlar qilinur. Idora ham alarg'a izhori tashakkur etib, maktabga bergon yordamlari uchun minnatdor etar, amsollarini (mablag'lari-Yo.T.) ko'paytirmoqni ollohdan tilaymiz"*. Faqatgina mazkur ta'lim maskani 4 sinfli ibtidoiy maktabligi, alohida dasturi borligi, uning ochish uchun hukumatdan ruxsat olinganligi va idorani maktab tashkil etganlarga tashakkurlari aytib o'tilgan xalos. Undan tashqari bu "Tashakkur"da Samarqand shahri va uning atrofidagi yangi usul maktablari, ularning vujudga kelishida katta xizmat ko'rsatgan kishilar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Misol uchun Jonboy uezdida ishbilarmon O'rinboyxo'ja maktab tashkil etgan va unga qori Komilni muallimlikka chaqirgan. Mullo Jo'raboy esa o'z hovlisida shunday ta'lim maskani barpo etib, Mullo Muhammadiyni o'qituvchi qilib tayinlagan. Shu bilan birga Samarqand shahar vokzali yaqinida Mullo Kozim va Mullo Halimlar esa Bog'ishamol mavzeida shu kabi maktablarni tashkil etishgan. Bularning natijasida Samarqand shahrida bu vaqtda yangi usul maktablarining bir necha ibtidoiy (boshlang'ich) maktablar faoliyat olib borgan. Ularning aksaryatini tashkil etishda mahalliy boylar tashabbus ko'rsatib metsenatlik qilgan.

Ko'plab mahalliy sarmoyadorlar esa faoliyat olib borayotgan maktablarni ta'mirlash uchun o'z mablag'larini sarflab ma'rifatparvarlarning olqishlariga sazovor bo'lgan. Misol uchun, Xo'qand shahri Xo'jand dahasidagi Bekbachcha mahallasidagi maktabining binosi shikastlanganida shahar qozisi Kamoliddinning maslahati bilan savdogar boy Ahmad Oxundboy unga homiylik qilib moddiy jihatdan yordam ko'rsatgan. Bu haqida Imomnazar G'oyibnazar o'g'li shunday ma'lumot bergan; *"Xo'jand dahasiga qarashli Bekbachcha mahallasida ko'pdan buyon davom etmish usuli jadida maktabi binosiga shkast yetgan edi. Ushbu yilning avvalida boylarimizdin Ahmad Oxundboy Mullo Kamoliddin qozining maslahatlari ila ta'mir qilmoqni boshlab yubordilar"*[13]. Muallif bunga qo'shimcha qilib maktab zamonga munosib katta, keng va yorug' qilib ta'mirlanishi, o'qituvchilar uchun alohida xona tashkil etilishi, o'qituvchilikka yosh, savodli Ubaydulla Musabek o'g'li tayinlangani hamda 20-mart (1915-yil) sanasidan u yana qaytadan ishga tushishini ma'lum qilgan.

Ba'zida mahalliy boylar hayriya ishlarida turli to'siqlarga ham uchrab turgan. Masalan, Farg'ona viloyatiga qarashli O'sh uezdida ma'rifatparvar Mirzo Fozil g'ayrat qilib o'z hovlisida yangi usul maktabini ochgan. Lekin vaqtlar o'tishi bilan o'quvchilar ko'payib, joy torlik qilib qolganida yonidagi mahalla masjidning uchta xonasi qo'shib olingan[14]. Biroq, yana joyning torligidan o'qish jarayonida vujudga kelgan qiyinchiliklarni ko'rgan mahalliy mulkdorlaridan Sodiqboy o'z hisobidan masjidning yonida maktab foydasiga katta bir g'ishtli imorat qurib berishni niyat qilgan. Biroq uning bu sa'y-harakatlari mahalaning imomi va g'ayratsiz shaxslaridan Q. (*keltirilgan manbada nomi yozilmagan-Yo.T.*) boshchiligidagi bir guruh vakillarning qarshiligiga uchragan. Ular masjid yonida maktab ochib bo'lmasligi, agar shunday bo'lsa shovqin bo'lib, namoz o'qishga bu xalaqit berishini ta'kidlashgan. Shuningdek, ular yangi usul maktablarining barqaror diniy negizlarga xafv soladi deb hisoblashgan.

Shuningdek Samarqand shahrida savdogar Sharofboy ham o'z mahallasida homiylik asosida yangi maktab qurdirib, unga o'qituvchilikka biror jadid namoyondasini taklif qilmoqchi bo'lganida eskilik tarafdori bo'lgan mahalla oqsaqolining qarshiligiga uchragan. Lekin baribir savdogarning

hovlisidagi mehmonxonada yoshlarga zamonaviy diniy va dunyoviy ta'lim beradigan yangi usul maktabini ochilgan va unga "Maktabi maorif" deb nom berilgan[15]. U yerga o'qituvchilikka Ismatulloni unga yordamchilikka esa Avliyoqulibek va Mirzo Shahobiddinlar taklif etilgan.

Farg'ona viloyatiga qarashli O'sh uezdida tashkil etilgan "Gulbahor" maktabini moddiy qiyinchilikka uchragan o'quvchilariga jadidlar bilan birga ayrim yerli mulkdorlar ham moddiy jihatdan imkon qadar ko'mak berishgan[16]. Bu xususida, manbalarda quydagilar ta'kidlangan, jumladan, "O'shda Gulbahor maktabida o'quvchi faqir shogirdlar foydasiga ushbu tubanda nomlari yozilmish ahl xayr zotlar tarafindin ayonalar(pul-Yo.Tayronov) berilmish; 1)Mullo G'ofurjon Muhammad Siddiqxo'ja o'g'li janoblari 200 dona yozuv daftari bilan 2 so'm, 2) Abdulhamid Sulaymoniy janoblari har bir shogirdga bir donadan dastrumol bilan 10 so'm, 3) Xoji Nazirxon afandi janoblari 5 so'm, 4)Jamshidbek janoblaridin 4 so'm, 5) Ibrohimjon 2 so'm, 6) Xoji Muhammadjon afandi bir aroba xoda, 7) Yana bir inson 1 so'm 60 tiyin". Barcha yig'ilgan mablag'larga maktab mudiri o'quvchilar uchun daftar, qalamlar olinishini aytib, pul berganlarga minnatdorchilik bildirgan va so'zini oxirida ularning mablag'lari yana ham ko'payishini so'rab qolgan.

Mahalliy sarmoyadorlar hamma davrlarda islom dini taraqqiyoti uchun o'zlarining munosib xissalarini qo'shib kelganlar va ortiqcha mablag'lariga imkon darajasida masjid va madrasalar qurdirib homiylik qilganlar. Huddi shuningdek XX asr boshlarida ham mazkur an'anani davom ettirgan holda ayrim tujjorlar madrasalar va masjidlar qurulishiga hayriyalar qilib ularning faoliyatlarini yo'lga qo'yishda yaqindan yordam berishgan. Masalan, toshkentlik yirik savdogarlardan biri Maxtum Yo'ldosh xoji Toshkent shahrida Beshyog'och dahasi Eshonguzar mahallasida o'z hisobidan xayriya qilib bir masjid va madrasa qurdirib bolalarning o'qish va o'rganishlari uchun sharoit yaratib bergan[17]. Bu jarayonlar nafaqat Toshkent balki, Turkistonning barcha hududlarida katta-kichik shaharlarda, qishloq va ovullarda keng yoyilgan. Farg'ona viloyati Namangan uezdidan Qozi Abdullohning xabar berishicha namanganlik sarmoyador Mullo Qosim Oxund o'g'li o'z hisobidan xayriya qilib bir madrasa qurdirib bergan[18]. Shuningdek, Xo'qand shahrida Kamoliddin Rahmonberdi o'g'li shaharning turli joylarida maktablar, masjid va madrasalar qurulshi uchun o'z hisobidan yuz ming so'm mablag' ajratgan bo'lsa, Andijon shahrida Mirkomil Mo'minboev yarim milion sarflab homiylik asosida shaharning turli joylarida madrasa, masjid va kasalxonalar qurdirib bergan[19].

Ayrim tadbirkorlar jadidlar tamonidan xalqning ma'rifatli qilishdagi asosiy vosita hisoblangan mahalliy gazeta va jurnallarga xayriya qilib, ularning moddiy jihatdan qo'llab turgan. Buning uchun nashrlarning tahririyati savdogar-boylarga alohida minnatdorchilik bildirgan. Misol uchun, namanganlik tadbirkorlardan G'ulomali Akramov va Mirobid Mirzo Ahmadboylar "Oyna" jurnalining rivojlanishi uchun mablag' ajratib homiylik qilganliklari sababli idoraning olqishiga sazovor bo'lgan[20]. Shuningdek, avliyootalik Saidmurod Saidali o'g'liga ham jurnal foydasi uchun qilgan harajatlari uchun tahririyat o'zining chuqur minnatdorchiligini bildirgan[21]. Sarmoyador Nurilloxon o'g'li Mirza Hamdamboy esa "Sadoi Turkiston" gazetasining moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan[22].

Xulosa qilib aytganda XX asr boshlarida Turkistonda mahalliy tadbirkorlar nafaqat savdo ishlari bilan balki, o'zlarining metsenatlik faoliyatlari bilan keng jamoatchilikning olqishiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, ularning katta qismi jadid ma'rifatparvarlarining moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan. Bu esa sovet adabiyotlarida savdogrlarga berilgan salbiy qarashlarni yo'qqa chiqarib, ularning chin ma'noda metsenat inson sifatida namoyon bo'lishiga imkon beradi.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Muallim kerak.// Oyna, 1914, №42, 1016-b.(A teacher is needed.// Oyna, 1914, No. 42, p. 1016.)
2. Jizzaxda maktab.// Oyna, 1914, №12, 287-288-betlar.(School in Jizzakh.// Oyna, 1914, No. 12, pp. 287-288)

3. Akobir Mansuriy. Xo'qandda yangi maktab.// Oyna, 1913, № 10, 234-b.(Akobir Mansuri. A new school in Khokand.// Oyna, 1913, No. 10, p. 234.)
4. Tashakkur // Sadoi Farg'ona, 1914, №2. (Thank you // Sadoi Fergana, 1914, No. 2.)
5. Xo'qandda maktabi Rashidiya islomiyasi.// Oyna, 1914, №15,332-b.(Rashidiya Islamiya, a school in Khoqand. // Oyna, 1914, No. 15,332-b)
6. Samarqandlik muallim. Tashakkur.// Oyna, 1914, №18, .259-b.(A teacher from Samarkand. Thank you.//Oyna, 1914, No. 18, p. 259.)
7. Asir. Namanganda to'ylarning islohi va maktab. // Sadoi Farg'ona, 1914, №6.(Asir. Reform of weddings and schools in Namangan. // Sadoi Fergana, 1914, No.6.)
8. Namangandan maktub. // Sadoi Farg'ona, 1914, №56.(Letter from Namangan. // Sadoi Fergana, 1914, No. 56.)
9. Ziyoboev A. Andijonda maktablar // Sadoi Turkiston, 1914, №3 (Ziyoboev A. Schools in Andijan // Sadoi Turkistan, 1914, No. 3.)
10. Mahalliy xabarlar. Yangi maktab // Oyna, 1914, №31, 609-b. (Local news. New school // Oyna, 1914, No. 31, p. 609.)
11. Munavvarqori Abdurashidxonov. Turkistonda birinchi namuna maktabi // Oyna, 1914, №43, 1029-b. (Munavvarqori Abdurashidkhanov. The first model school in Turkestan // Oyna, 1914, No. 43, p. 1029.)
12. Tashakkur.// Oyna, 1914, №46, 1105-b. (Thank you.// Oyna, 1914, No. 46, p. 1105.)
13. Imomnazar G'oyibnazar o'g'li. Maktab // Sadoi Farg'ona, 1915, №117.(Imamnazar Ghaybnazar oglu. School // Sadoi Fergana, 1915, No. 117.)
14. Kamol Jonov. Kimga faryod etaylik // Sadoi Turkiston, 1914, №33.(Kamol Jonov. To whom shall we cry // Sadoi Turkistan, 1914, No. 33.)
15. Samarqand yoki maktablar // Sadoi Turkiston, 1915, №56. (Samarkand or schools // Sadoi Turkistan, 1915, No. 56.)
16. Abdulahad Cho'pchizoda. Tashakkur // Sadoi Farg'ona, 1915, №122.(Abdulahad Chopchizoda. Thank you // Sadoi Fergana, 1915, No. 122.)
17. Abdulla Qodiriy Toshkent xabarlarini yoinki maktab va masjidlar // Sadoi Turkiston, 1914, №46. (Abdulla Qodiriy Tashkent news or schools and mosques // Sadoi Turkistan, 1914, No. 46.)
18. Qozi Abdulloh. Namangandan // Samarqand, 1913, №38. (Qazi Abdullah. From Namangan // Samarkand, 1913, No. 38.)
19. Mahalliy xabarlar // Sadoi Farg'ona, 1914, № 11.(Local news // Sadoi Fergana, 1914, No. 11.)
20. Tashakkur.// Oyna, 1914, №15, 260-b.(Thank you.// Oyna, 1914, No. 15, p. 260.)
21. Tashakkur.// Oyna, 1914, №17, 332-b.(Thank you.// Oyna, 1914, No. 17, p. 332.)
22. To'lagan Xo'jamiyrov. O'z muxbirlarimizdan // Sadoi Turkiston, 1914, № 53. (Tolagan Khojamiyrov. From our correspondents // Sadoi Turkistan, 1914, No. 53.)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000